



## **XORAZM VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI**

Xorazm viloyatida 2018/2019-o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 526 tani tashkil etib, ulardan 348 tasi (66 %) qishloq joylarida, 178 tasi (34 %) shahar joylarda joylashgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim muassasalari soni 0,2 foizga oshdi (1 ta).

### **Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tumanlarlar kesimida taqsimlanishi, birlik**




O'zbekiston Respublikasida umum ta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar. 2018/2019 o'quv yili boshiga umum ta'lim muassasalarining umumiy sonidan 521 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, 1 tasi boshlang'ich maktablar va 4 tasi boshqa muassasalar. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 340,2 ming o`quvchi, boshlang'ich muassasalarida 0,2 ming o`quvchi va boshqa muassasalarda 0,9 ming o`quvchi ta'lim olmoqda.



**Umumta'lim muassasalarida sinf guruhlari bo'yicha o'quvchilar soni  
tumanlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi**


|                        | <b>1-4 sinf</b> | <b>5-9 sinf</b> | <b>10-11 sinf</b> |
|------------------------|-----------------|-----------------|-------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>141,3</b>    | <b>152,1</b>    | <b>47,0</b>       |
| <b>Urganch sh.</b>     | <b>15,1</b>     | <b>16,6</b>     | <b>3,9</b>        |
| <b>Xiva sh.</b>        | <b>7,6</b>      | <b>8,8</b>      | <b>2,0</b>        |
| <b>tumanlar:</b>       |                 |                 |                   |
| <b>Bog'ot</b>          | <b>12,1</b>     | <b>13,4</b>     | <b>4,6</b>        |
| <b>Gurlan</b>          | <b>11,0</b>     | <b>12,7</b>     | <b>4,2</b>        |
| <b>Qo'shro'pir</b>     | <b>12,5</b>     | <b>13,4</b>     | <b>4,1</b>        |
| <b>Urganch</b>         | <b>11,6</b>     | <b>12,5</b>     | <b>3,4</b>        |
| <b>Hazarasp</b>        | <b>19,4</b>     | <b>19,3</b>     | <b>7,0</b>        |
| <b>Xonqa</b>           | <b>14,1</b>     | <b>15,1</b>     | <b>5,1</b>        |
| <b>Xiva</b>            | <b>10,9</b>     | <b>11,6</b>     | <b>3,7</b>        |
| <b>Shovot</b>          | <b>12,8</b>     | <b>13,0</b>     | <b>3,9</b>        |
| <b>Yangiariq</b>       | <b>8,1</b>      | <b>8,7</b>      | <b>2,7</b>        |
| <b>Yangibozor</b>      | <b>6,2</b>      | <b>7,1</b>      | <b>2,4</b>        |

## Umumta'lim muassasalaridagi jami o'quvchilar soni va 9-sinfni bitirganlarning tumanlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi



## Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi\*


Smenalar bo'yicha mashg'ulot olib boradigan muassasalar ulushi, %



2018/2019 o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 140 ta (26,8%), ikki smenada 382 ta (73,2%) ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 233,5 ming o'quvchi (68,6%), ikki smenada 106,9 ming o'quvchi (31,4%), tahsil olmoqda

\* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz

### Hududlar kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ulushi \*, %




\* o'rindoshlarsiz

2018/2019 o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 28,1 ming nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etib, ulardan 63 foizi qishloq maktablarida, 37 foizi esa shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Xorazmda bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.

## **Xorazm viloyatida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi**

2018/2019 o'quv yilining boshiga Xorazm viloyatida 91 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ulardan akademik litseylar soni 5 tani va kasb-hunar kollejlari soni - 86 tani tashkil etdi.

### **Tumanlarlar kesimida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning soni, birlik (2018/2019 o'quv yili boshiga)**




*Ma'lumot uchun:* 2017/2018 yillar boshiga 93 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 5 tasi akademik litsey va 88 tasini kasb-hunar kollejlari tashkil qilgan.


2018/2019 o'quv yili boshiga o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarining umumiy sonidan akademik litseylar ulushi 5,5% ni, kasb-hunar kollejlari esa 94,5% ni tashkil etadi.

*Ma'lumot uchun:* akademik litseylarning ulushi 2016/2017 o'quv yili boshida 9,2%, kasb-hunar kollejlari esa 90,8% ni tashkil etgan.

Xorazm viloyatida 2018/2019 o'quv yili boshiga 5 ta akademik litseylarda 3,9 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 1,6 ming nafar o'quvchi ta'lim muassasalarini bitirdi. 2017/2018 o'quv yilining boshida esa 5 ta akademik litseylarda, 4,6 ming nafar o'quvchi tahsil olgan va 1,5 ming nafar o'quvchi bitirgan.




## Akademik litseylar o'quvchilari va bitiruvchilar soni, ming kishi (2018/2019 o'quv yili boshiga)



■ Akademik litseylar o'quvchilar soni    ■ bitiruvchilar soni

**Hududlar kesimida kasb-hunar kollejlari o'quvchilari  
va bitiruvchilari soni, ming kishi  
(2018/2019 o'quv yili boshiga)**




Xorazm viloyatida 2018/2019 o'quv yili boshiga 86 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda, ularda 39,0 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 2018 yilda 28,5 ming nafar o'quvchi kasb-hunar kollejlari bitirdi.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari orasida qizlarning ulushi 51,7%, o'g'il bolalar 48,3% ni tashkil etdi. 2018 yilda bitirgan o'quvchilarning 49,4%ni o'g'il bolalar, 50,6% ni qizlar tashkil etadi.




**Kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan o'quvchilarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %  
(2018/2019 o'quv yili boshiga)**



2018/2019 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari soni 2026 ta kishini tashkil etdi, ulardan 2003 nafari oliy ma'lumotli va 23 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega.

*Ma'lumot uchun:* 2017/2018 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari 3441 nafar o'qituvchi qayd etilgan bo'lib, ulardan 3414 nafari oliy ma'lumotli va 27 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan.

2018/2019 o'quv yilining boshiga




## Xorazm viloyatida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari

2018 yilning 1 noyabr holatiga Xorazm viloyatida 3 ta oliy ta'lim muassasalari Urganch Davlat Universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Urganch filiali faoliyat yuritmoqda.

### 2018/2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul


Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2018/2019 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 4192 nafar, shu jumladan 756 nafari davlat grantlari asosida, 3436 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan.



2018-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 13226 nafarni tashkil etib, ularning 2986 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2018 yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 1163 nafari qizlar (52,8%) tashkil etadi.

## Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2018/2019 o'quv yili uchun magistraturaga qabul qilingan jami 93 nafar talabalardan 18,3 foizi (17 nafari) davlat granti asosida, 81,7 foizi (76 nafari) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi.



### Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarining o'qiydigan qurslari bo'yicha taqsimlanishi

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 156 nafarni tashkil etib, ulardan 40 nafari davlat grantlari asosida, 116 nafari shartnoma asosida ta'lim olmoqda. Jami talabalarining 51,9 foizini (81 nafari) qizlar tashkil etgan bo'lsa ularning, 47,5 foizi (19 nafari) davlat grantlari asosida ta'lim olmoqda.


### O'qiydigan kurslari bo'yicha magistratura bosqichi talabalari sonining taqsimlanishi, (kishi)

|  | 1 kurs    | 2 kurs    | 3 kurs |
|--|-----------|-----------|--------|
| <b>Xorazm viloyati</b>                           | <b>93</b> | <b>63</b> | -      |
| Urganch Davlat Universiteti                      | 88        | 58        | -      |
| Toshkent axborot texnologiyalari Urganch filiali | 5         | 5         | -      |

2018/2019 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida 13,4 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 7,2 ming nafarini qizlar tashkil etadi. Talabalarning 22,6 foizi davlat grantlari asosida, 77,4 foizi to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.

### **2018 yil 1 noyabr holatiga ko'ra oliy o'quv yurtlarida talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:**

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**  
**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**  
**Тел.: (0371)224-65-21**